

**Xalqaro Nordik universitetida “Talabalarni kitobxonlikga jalb qilish maqsadida taniqli adiblar, shoirlar bilan ijodiy kecha” doirasida O'lmas Umarbekov ijodiy faoliyati va To'ra Sulaymon ijodiy faoliyati yuzasidan amalga oshirilgan ishlar xususida
MA'LUMOTNOMA**

“Ma'rifat ulashib” loyihasi doirasidagi ushbu anjumanda Xalqaro Nordik universiteti ustozlari va talabalari, Yozuvchilar uyushmasi a'zolari ishtirok etdilar.

Talaba-yoshlar bilan adabiy-ma'rifiy suhbat o'tkazildi.

XNU dotsenti, shoira Sitorabonu Shomurodova To'ra Sulaymonning go'zal she'riyati, yetuk romannavistligi borasida o'z mushohadalarini yoshlarga yetkazdi, satrlaridan namunalar keltirdi. Musiqa ta'limi yo'nalishi talabalari o'z badiiy chiqishlarida To'ra Sulaymon qalamiga mansub she'rlarga nazar soldilar.

Talaba-yoshlar uchun “Zakovat” intellektual o'yini uyushtirilib, ishtirokchilarning adabiy bilimlari sinovdan o'tkazildi. Tadbir milliy urf-odat va qadriyatlarga uyg'un tarzda o'tkazildi. “Nordik” ansambli ijrosida kuy-qo'shiqlar jarang sochib turdi. Tadbir tafsilotlari universitetning ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalari va Uzreport TV kanalida keng ommaga yetkazildi.

16-dekabr kuni Xalqaro Nordik universitetiga taniqli olim Rahmon Qo'chqor tashrif buyirdi. Rahmon qo'chqor nutqi davomida O'lmas Umarbekov ijodiy faoliyati xususida talabalarda qiziqarli ma'lumotlar va ularning ijodiy faoliyati haqida juda ko'p ma'lumotlar berib o'tdi.



**Taniqli olim Rahmon Qo'chqor
talabalar huzurida**





Ma'naviy-ma'rifiy

ishlar bo'yicha dekan muovini:

X.Mamajanova